

Mazkur shartnoma matni va shakli
Farg'ona viloyati bo'yicha G'aznachilik boshqarmasining
26.12.2017 y. №ZR 11-75/528-son xati asosida MA'QULLANGAN
SHARTNOMA № 7/9

*(Budjetdan mablag' oluvchi muassasalarni dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan
ta'minlash haqida)*

“2022” yanvar 2022 yil.

Farg'ona shahri.

Ushbu shartnoma bir tomondan **“FARG'ONA DORI-DARMON”** aksiyadorlik jamiyati nomidan boshqaruv raisi M.A.Tursunov vakilligida kelgusida **“Ijrochi”** va ikkinchi tomondan **Farg'ona tumani Tibbiyot birlashmasi** boshlig'i **E.A.Gulomov** vakilligida kelgusida **“Buyurtmachi”** o'rtasida har ikki tomonning amaldagi **“Nizom”lari** va O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va **“Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonuniga**, shuningdek, boshqa amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi mazmunda tuzdilar:

I. Shartnoma predmeti.

1.1 **“Ijrochi” “Buyurtmachi”ga** ushbu shartnomaga asosan umumiy qiymati 3 998 596 (uch million to'qqiz yuz to'qson sakkiz ming besh yuz to'qson olti so'm) bo'lgan dori vositalari hamda tibbiy buyumlar (kelgusida **“Tovar”** deb nomlanadi)ni spetsifikatsiyaga asosan bir marotabalik yoki yillik talabnoma asosida yetkazib beradi.

1.2. **“Ijrochi”** esa o'z navbatida ushbu **“Tovar”lar** uchun kelishilgan haqni shartnomaning 2-bo'limida belgilangan shartlar asosida **“Buyurtmachi”** ga to'laydi.

II. To'lov tartibi.

2.1. **“Buyurtmachi”** shartnoma imzolanganidan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lgan **“Tovar”** umumiy qiymatining 30% ni oldindan 1 199 578.8 so'm miqdorda **“Ijrochi”** ning hisob-raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan to'laydi. Yetkazib berilgan **“Tovar”lar** to'lovining qolgan, ya'ni 70% 2 799 017.2 qismi esa **“Buyurtmachi”** tomonidan **“Tovar”** qabul qilib olingandan so'ng 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida to'liq to'lab beriladi.

III. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

3.1. “Ijrochi” ning huquq va majburiyatlari:

3.1.1. **“Buyurtmachi”** tomonidan **“Tovar”** umumiy narxining 30 foizi **“Ijrochi”** ning hisob-raqamiga oldindan to'langandan so'ng **“Ijrochi” “Buyurtmachi”** ni **“Tovar”** bilan ta'minlaydi.

3.1.2. **“Ijrochi” “Buyurtmachi”** ga tegishli hujjatlar asosida **“Tovar”ni** belgilangan tartibda hamda belgilangan standart sifat darajasida topshirish majburiyatini oladi.

3.1.3. **“Ijrochi” “Buyurtmachi”** ga qulaylik yaratish maqsadida **“Tovar”ni** o'z transport vositalarida **“Iste'molchi”** ning manzilgohiga yetkazib berishi mumkin. Bu holda transport vositasi orqali yetkazib berish harajati **“Ijrochi”** tomonidan qoplanadi.

3.1.4. **“Ijrochi”** ning transport vositasida yetkazilgan **“Tovar”** ning miqdoridan aniqlangan kamomad hamda sifatsizliklar yuzasidan **“Buyurtmachi” “Ijrochi”ning** vakili ishtirokida **“Tovar”** yetkazilgan kundayoq dalolatnoma tuzib holatni tasdiqlaydi. Mazkur dalolatnomaga asosan kamomad hisobi **“Ijrochi”** tomonidan to'ldiriladi. Agarda ushbu harakatlar o'z vaqtida amalga oshirilmasa e'tiroz asossiz deb hisoblanib, inobatga olinmaydi.

3.1.5. **“Ijrochi”** Sog'liqni saqlash tizimidagi yuqori tashkilotlar tasdiqlagan markazlashgan taqsimot orqali dori vositalari va muruvvat yordamlaridan kelgan **“Tovar”lar** bilan **“Buyurtmachi”ni** ta'minlaydi. Taqsimotni tasdiqlagan tashkilotning ruxsatisiz **“Buyurtmachi” “Tovar”** ni olishga haqli emas. Transport harajatlari **“Buyurtmachi** tomonidan qoplanadi.

III. “Buyurtmachi”ning huquq va majburiyatlari:

3.2.1. "Ijrochi" "Buyurtmachi" dan shartnoma tuzilgandan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lgan "Tovar" uchun ularning umumiy qiymatining 30 foizini oldindan to'lagandan so'ng 10 kalendar kun ichida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib, "Tovar"ni ishonchnoma asosida qabul qilib olish huquqiga ega.

3.2.2. "Buyurtmachi" "Ijrochidan" dan O'zbekiston Respublikasida farmakologik ro'yxatdan o'tkazilib, ishlatishga ruxsat etilgan, sifati, markirovka va o'ramlari amaldagi farmatsevtik va texnik talablarga javob beradigan hamda sifat sertifikatiga ega bo'lgan "Tovar"larni talab qilish huquqiga ega. Yetkazib berilgan "Tovar" sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmasa, "Buyurtmachi" "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunining 26-moddasiga muvofiq "Tovar"ni qabul qilishni hamda ularning haqini to'lashni rad etib, "Ijrochi"dan sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmaydigan "Tovar" qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli.

IV. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari

4.1. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonuni va boshqa amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

4.2. "Buyurtmachi" tomonidan "Ijrochi"ga berilgan yillik berilgan buyurtmalarni "Buyurtmachi" ushbu shartnomaning umumiy summasidan kelib chiqqan holda to'liq olishi shart. Aks holda "Buyurtmachi"dan O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonunining 31-moddasiga muvofiq olinmay qolgan (olish asossiz rad etilgan) "Tovar" summasining 5 foizi, tez buziladigan "Tovar"lar bo'yicha esa 10 foizi miqdorida jarima undiriladi.

4.3. "Ijrochi" tomonidan yetkazib berilgan "Tovar" uchun to'lanishi lozim bo'lgan to'lov haqi "Buyurtmachi" tomonidan o'z vaqtida amalga oshirilmasa, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonunining 32-moddasiga muvofiq to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun to'lanishi lozim bo'lgan umumiy summaning 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50% dan ortik bo'lmagan miqdorda "Ijrochi" ga penya to'laydi.

4.4. "Buyurtmachi"tomonidan "Ijrochi"ga yillik berilgan buyurtmalarni yetkazib berishni "Ijrochi" asossiz ravishda kechiktirsa, kechiktirilgan har bir kun uchun "Ijrochi" "Buyurtmachi"ga yetkazib berilmagan "Tovar" umumiy qiymatining 0,5 foizi miqdorida, ammo yetkazib berilmagan tovar umumiy qiymatining 50 % dan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

V. Fors-major xolatlari

5.1. Taraflardan xech biri boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarni taraflarning erki va istagidan tashqari paydo bo'lgan va ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etish mumkin bo'lmagan holatlar (urushlar, fuqarolik tartibsizligi, epidemiya holati, blokada, embargo, tabiiy ofatlar) bilan bog'liq holatda bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

VI. Nizolarni hal qilish tartibi

6.1. Ushbu shartnoma yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar tomonlar o'rtasida muzokara yo'li bilan hal qilinadi. Agarda kelishuvga erishilmasa qonunchilikda belgilangan tartibda "Ijrochi" joylashgan joydagi iqtisodiy sud tomonidan hal qilinadi.

VII. Shartnomamuddativaunio'zgartirishtartibi

- 7.1. Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar faqat tomonlarning o'zaro yozma kelishuvlari bilan kiritilishi mumkin.
- 7.2. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi.
- 7.3. Ushbu shartnoma g'aznachilik bo'limi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab yuridik kuchga kiradi.
- 7.4. Shartnoma 2022 yil "31" dekabr kuniga qadar amal qiladi.

VIII. Tomonlarning pochta manzili va to'lovrekvizitlari:

"Ijrochi"

"FARG'ONA DORI-DARMON" AJ

Farg'ona sh. Al-Farg'oniy ko'chasi 50-uy
Ombori: Qo'qon sh. Turon ko'chasi 76-uy
X/r: 20208000000215318001 MFO: 00493
O'z.R.TIF Milliy Bankning Farg'ona bo'limi.
INN: 200153801 OKONX:71212
Tel: Farg'ona (73) 244-66-14. ind:150100
Qo'qon: (73) 543-21-37.

"Buyurtmachi"

Farg'ona tumani tibbiyot birlashmasi


manzil: Vodil qishlog'i Quvonch ko'chasi
№96
x/r: 100022860302337072120054010
bank: Markaziy bank Toshkent
STIR: 200196882 OKONX 91511
G'aznachilik bo'linmasi nomi:
Moliyavazirligi G'aznachilik
Markaziy bank Toshkent shahar Bosh
boshqarmasi XKKM
Yagona g'azna x/v: 23402000300100001010
MFO: 00014 STIR: 201122919
Tel: 73-353-15-40

"FARG'ONA DORI-DARMON" AJ

Rahbar: M.A. Tursunov

()

Rahbar: E.A. Gulomov
(imzo, muxr, F.I.O.)




**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDAGI HUQUQIY
XULOSA
№FD28642210**

1. Loyihaning turi: shartnoma
2. Loyihaning nomi: Dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash to'g'irisida
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:
Farg'ona tumani tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022-yil
27-yanvar kuni ishlab chiqilib, dasturga kiritilgan.
Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish
natijalariga ko'ra

XULOSA:

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Yuridik xizmat ko'rsatish
markazi bosh yuriskonsulti:**



A.Mirzayev

2022-yil 27-yanvar

SPYeSIFIKASIYA

7/9

Yetkazib beruvchi: "Fargona Dori-Darmon" AJ
Sotib oluvchi: FARGONA T-NI TIBBIY BIRLASHMASI

Nomi	Ishlab chiqaruvchi	O'lcho v birligi	Seriya	Soni	Narxi			Summa	Yaroqlilik muddati
					Ulgurji narxi	nds	realizatsiya		
NATRIYA XLORID 0,9 % R-R D/INF 500 ML	JURABYeK Laboratoriyes SP OOO Uzbekiston	FL	N1381221,N139122 1	370	4590,8	0	4590,80	1698596,00	01.2025
NATRIYA XLORID-SEEM R-R 0,9 % 200 ML	Samarkand England Eco-Medical SP OOO	FL	16641221,31221	800	2875	0	2875,00	2300000,00	01.2025
SUMMA								3998596,00	

Etkazib beruvchi

Qabul qiluvchi

Imzo

Imzo

M. P.

Muxr o'rn

o'rn

Muxr